



Jinoyat Protsessida Ishtirok Etuvchi Boshqa Shaxslarning Huquqiy Maqomi Va Ularning Xavfsizligi

Bozorov Jasurbek Saydulla o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi

Anotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat protsess ishtirokchilari hisoblangan protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning ilmiy va nazariy asoslari. Jinoyat protsess ishtirokchilarining huquqiy maqomi va ularning ta'riflari yuzasidan mavjud kamchiliklarni hamda nazariy adabiyotlarni tahlildan kelib chiqqan taklif va tavsiyalar, qonunchiligimizda qanday normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi va ularning qo'llanilish doirasi hamda ayrim muammolarni o'rgangan holda asosli takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat protsess, jinoyat protsess ishtirokchilari, jinoyat protsess ishtirokchilarining huquqiy maqomi, jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, normativ-huquqiy hujjat.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi muammosi juda dolzarb hisoblanadi, chunki jinoiy protsessual faoliyat vazifalari to'g'ridan-to'g'ri jinoiy ishlar bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning ishtiroki uchun xavfsiz sharoitlarni amaliy ta'minlashga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 18-moddasida, jinoyat ishini yuritish uchun mas'uliyatli barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shart ekanligi asosiy prinsipi sifatida belgilab qo'yilgan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 65-moddasiga binoan, jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan biror holatni bilishi mumkin bo'lgan har qanday shaxs **guvoh** sifatida ko'rsatma berish uchun chaqirilishi mumkin. Guvoh isbotlovchi axborotning manbayi sifatida tergov qilinayotgan hodisaning holatlaridan tashkil topadi.

Guvoh advokatning yuridik yordamidan foydalanish; tergov harakatlarida advokat bilan birga ishtirok etish; so'roq yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z manfaatlarini himoya qilish uchun, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish huquqiga ega.

Guvoh sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Guvoh uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda majburiy ravishda olib kelinishi mumkin, ko'rsatma berishdan bosh tortganlik, shuningdek, bilaturib yolg'on ko'rsatma berganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladi (Jinoyat-protsessual kodeksining 66-moddasi).

Guvoh erkin va majburlovsiz ko'rsatma berish huquqiga ega. Qonun guvoh tariqasida o'z vazifasini bajarayotgan shaxslarga tashqaridan bo'layotgan har qanday shaxslarning tazyiqlaridan himoya qilishni kafolatlaydi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 66-moddasi **guvohning advokati** protsessual maqomiga bag'ishlangan bo'lib, unga binoan, guvohning advokati - belgilangan tartibda guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda unga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxsdir. Jinoyat ishida taraflar manfaatini himoya qilayotgan shaxs mazkur ish bo'yicha guvohning advokati bo'lishi mumkin emas.



Guvohning advokati ishda ishtirok etishga u advokatlik guvohnomasini ko'rsatganidan va orderni taqdim etganidan so'ng, guvoh chaqirilgan paytdan e'tiboran qo'yiladi.

Guvohning advokati guvohga zarur yuridik yordam ko'rsatishi; dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va boshqa qonunga xilof harakatlar orqali haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda va sud majlisi vaqtida tartibga rioya qilishi shart.

Jinoyat protsessida himoyachining faol va sidqidildan ishtirok etishi, o'z himoyasi ostidagi shaxsning manfaatidan kelib chiqib, qonunda ko'rsatilgan barcha usul va vositalarni qo'llashi ishni ayblanuvchi foydasiga adolatli hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat ishi yurituvda xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs **ekspert** sifatida chaqirilishi mumkin.

Ekspert chaqirish, ekspertiza tayinlash va o'tkazish Jinoyat-protsessual kodeksining 172-187-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ayni vaqtda ekspert sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha yozma xulosalar berishi; o'zi tomonidan o'tkazilgan ekspertiza bo'yicha ko'rsatmalar berishi va bu xulosalarni tushuntirish uchun qo'yilgan qo'shimcha savollarga javob berishi; dastlabki tergov materiallarini oshkor etmasligi; sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart. Ekspert uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin (Jinoyat-protsessual kodeksining 68-moddasi).

Mutaxassis. Jinoyat-protsessual kodeksining 69-moddasida sud muhokamasida mutaxassisning ishtiroki to'g'risida to'xtalib o'tilgan bo'lib, shunga ko'ra mutaxassis sudning chaqiruviga ko'ra sud muhokamasiga kelishi, sudga dalillar topish, o'rganish va mustahkamlashda o'zining maxsus bilimi bilan yordam berishi, sud diqqatini ish yuzasidan ma'lum bir holatlarni aniqlashga jalb etishi, alohida savollarga tushuntirish berishi kerak. Shuningdek, mutaxassislar raislik qiluvchining ruxsati bilan dalillarni tekshirish maqsadida ishtirokchilarga savollar berish huquqiga ega.

Sud muhokamasida mutaxassislarning bergan bayonotlari dalillarga baho berishda katta ahamiyatga ega.

Tarjimon. Jinoyat ishi yurituv jarayonida tarjimondan foydalanish jinoyat protsessining konstitutsiyaviy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 20-moddasiga binoan, **ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchilariga** o'z ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda og'zaki yoki yozma arz qilish, ko'rsatma va tushuntirishlar berish, iltimosnoma va shikoyatlar bilan murojaat qilish, sudda so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar yoxud ularning vakillari, guvoh, ekspert, mutaxassis ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa yoki kar yoki soqov bo'lsa;

Biror matnni boshqa tildan tarjima qilishga zarurat bo'lsa (Jinoyat-protsessual kodeksining 71-moddasi).

Tarjimonga tegishli qoidalar ish yuritishda ishtirok etish uchun taklif qilingan, kar yoki soqovning imo-ishoralarini tushunadigan shaxsga nisbatan ham qo'llaniladi.

Tergov harakatlarini yuritishda **xolis** sifatida ishtirok etish uchun ishning oqibatidan manfaatdor bo'lmagan, kamida ikki nafar voyaga yetgan fuqaro chaqirilishi lozim.

Sud majlisi kotibi. Sud majlisida sud majlisi kotibi vazifalarini sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) bajaradi.

Yuqoridagi holatlarda bugungi kunda milliy qonunchiligimizdagi jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning huquqiy maqomini ko'rib chiqdik. Bundan tashqari, JPKning 270-moddasida jinoyat protsess ishtirokchilarining xavfsizligi masalalari keltirib o'tilgan. "Jabrlanuvchi, guvoh yoki ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga, shuningdek ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlariga o'ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo'q qilib tashlash yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki



o'zga g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar bilan tahdid qilinayotir deyish uchun yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bu shaxslarning hayoti, salomatligi, sha'ni, qadr-qimmat va mol-mulkini muhofaza qilish, shuningdek aybdorlarni aniqlash hamda ularni javobgarlikka tortish choralari ko'rishlari shart.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ichki ishlar organlariga ishda ishtirok etayotgan shaxslarning hayoti, salomatligi, sha'ni, qadr-qimmat va mol-mulki muhofaza qilinishini ta'minlovchi barcha zarur choralarni ko'rish xususida yozma ravishda topshiriq berishga haqlidir.

Ichki ishlar organi xavf tahdid solayotgan shaxslarga doir jinoyat ishidagi mavjud ma'lumotlardan, bu xavfning ehtimol tutilgan xususiyati, manbalari, joyi, vaqti va boshqa holatlaridan xabardor etilishi lozim". Biroq yuqorida keltirilgan holatlar yuzasida bugungi kunda jinoyat protsess ishtirokchilariga nisbatan sodir etilayotgan yoki sodir etilishi ehtimoli mavjud bo'lgan holatlarni inobatga olib ularga nisbatan, xususan, guvohlarining xavfsizligini kuchaytirish yuzasidan milliy qonunchiligimizni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Shuning uchun xorij mamlakatlarining milliy qonunchiligini va nazariy adabiyotlarini tahlil qilish o'rinli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida birinchi marta jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash masalari O'zbekiston Respublikasining 14.01.2019-yildagi "jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"¹ gi qonuni qabul qilingan. Ushbu normativ hujjatda jinoyat protsessida shaxs xavfsizligi asoslarini tartibga soluvchi xalqaro normalar bilan O'zbekiston Respublikasi huquqiy musobatlari moslashtirildi. Shunday qilib, jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan qo'llaniladigan, xavfsizlik choralari odatda protsessual (O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida mustahkamlangan) va protsessual bo'lmagan "jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish" qonunida belgilangan.

A.Yu.Yepixining fikricha "xavfsizlik" toifasini xavfsizlik ob'ektini (himoyalangan shaxsni) hujum tahdididan yoki unga to'g'ridan-to'g'ri kimdir tomonidan hujum qilishdan himoya qilish holatini ta'minlaydigan shartlar to'plami nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi². Shunday qilib, "xavfsizlik" tushunchasini o'rganadigan tadqiqotchilar deyarli aksariyat hollarda xavfsizlik keng qamrovli va umumiy tushuncha ekanligini e'tirof etadilar.

"Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi" bu umumiy toifaga nisbatan ixtisoslashgan tor kategoriyadagi "xavfsizlik" tushunchasini, ya'ni jinoyat protsess ishtirokchilarini himoya qilishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan bir qatorda chet olimlaridan V.Ya.Shapakidze jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi, birinchi navbatda, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni o'z ichiga oladi, chunki ular xavfsizlik ob'ekti hisoblanishini keltirib o'tgan³. Subyektiv huquq deganda shaxsning mumkin bo'lgan xatti-harakatlarining ijtimoiy shartli va kafolatlangan o'lchovi tushuniladi, u ob'ektiv huquq normalari (Konstitutsiya, qonunlar) bilan belgilanadi, o'z ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish uchun moddiy, ma'naviy va shaxsiy tovarlar va qadriyatlardan foydalanish maqsadida⁴. Bunday qonuniy manfaatlar sifatida "shaxsiy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilish faktidan kelib chiqadigan" hayot, sog'liq, qadr-qimmat, shuningdek mulkiy manfaatlarini ko'rib chiqish odatiy holdir⁵.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan jinoyat protsessida ishtirok etishi munosabati bilan noqonuniy tajovuzlardan huquqiy va boshqa himoya

¹ O'zbekiston Respublikasining 14.01.2019-yildagi "jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida" gi qonun.

² Епихин А.Ю. Обеспечение безопасности личности в уголовном судопроизводстве. СПб., 2004. С. 53.

³ Шапокидзе В.Я. Обеспечение процессуальной безопасности частных лиц в досудебном уголовном производстве: автореф. дисс канд. юрид. наук. Волгоград, 2002. С. 41.

⁴ Витрук Н.В. Общая теория правового положения личности. М., 2008. С. 233.

⁵ Халфина Р.О. Общее учение о правоотношении. М., 1974. С. 123—126.



vositalari tizimidan foydalanish natijasida ularning xavfsizligi tahdidiga sabab bo'lgan huquqlarni, shuningdek hayotda, sog'liqda va mulkiy manfaatlarida ifodalangan qonuniy manfaatlarini himoya qilish demakdir.

Jinoyat protsessida shaxsiy xavfsizlik institutining samaradorligini oshirish shartlari mazmunan ikki guruhga bo'lib o'rganiladi:

- 1) qonunchilik bilan bog'liq shartlar (ya'ni, shaxsning xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari) jinoyat protsessida shaxsning xavfsizligini ta'minlash uchun huquqiy asos yaratishga qaratilgan umumiy talablar (mavjud qonunchilikni takomillashtirish va yangisini qabul qilish);
- 2) ushbu institut huquqiy normalarining ishlashi (amal qilish amaliyoti) bilan bog'liq shartlar.

Bularga quyidagi talablar kiradi: xavfsizlik choralari qo'llashning murakkabligi; amaldagi qonunchilikni takomillashtirish va yangidan qabul qilish; jinoyat protsessida shaxsning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq xarakatlarning qonuniyligi; gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, shuningdek, ayblanuvchi va himoyachi tomonlar o'rtasida muvozanatni saqlash; qonuniy vakillarga ega shaxslarga noqonuniy ta'sir qilish tahdidiga qarshi xavfsizlik choralari; jinoyat protsessi va boshqa qarama-qarshiliklardir.

Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, davlat organlari jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilariga nisbatan protsessual va noprotsessual himoya choralari qo'llaydi.

Protsessual chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida mustahkamlab qo'yilgan. Noprotsessual choralar (masalan, shaxsiy himoyani ta'minlash, o'zini o'zi himoya qilishining maxsus vositalari, yashash joyini o'zgartirish va boshqalar) jinoyat protsessi ishtirokchilarini davlat tomonidan himoya qilishga oid turli idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

XULOSA

I. Jinoyat protsessi nazariyasini boyitishga qaratilgan ilmiy to'xtam va xulosalar.

1. Jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash:

Jabrlanuvchilarning, guvohlarning va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i mol-mulki hamda sha'n va qadr-qimmat, ishchanlik obro'siga tajovuz ehtimoli mavjud bo'lganda qo'llaniladigan, jinoyatlarning oldini olishga yoki ularni fosh etishga ko'maklashadigan, xavfsizlik va ijtimoiy himoya qilish choralari o'z ichiga oladigan chora-tadbirlar jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi.

2. Boshqa xavfsizlik choralari quyidagilar kiradi:

- a) himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylikni ta'minlash;
- b) shaxsni, uy-joyini va boshqa mol-mulkni qo'riqlash;
- d) himoya qilinuvchi shaxsga maxsus individual himoya vositalarini va texnik vositalarni berish;
- e) vaqtinchalik xavfsiz joyga joylashtirish;
- f) boshqa yashash joyiga ko'chirish, ish (xizmat) yoki o'qish joyini o'zgartirish;
- g) hujjatlarni almashtirish;
- h) himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanilishini cheklash;
- i) qamoqda yoki jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxsga nisbatan qo'shimcha xavfsizlik choralari ta'minlash.

3. Jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash maqsadi quyidagilardan iborat:

- ✓ protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash;



- ✓ inson huquqlarini ustuvor darajaga olib chiqish;
- ✓ jinoyatlarni tez va to‘la ochish;
- ✓ latent jinoyatlar soni oshishining oldini olish;
- ✓ yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish;
- ✓ hukmning qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishini ta’minlash.

II. Qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar.

1. Jinoyat protsessual kodeksini takomillashtirish yuzasidan takliflar:

Taklif: JPKning 127-moddasi 6-qismini ushbu moddada keltirilgan stenografiya, videokuzatuv, shuningdek audio va video qayd etish tizimlaridan foydalangan holda o‘tkazish tartibini qonun bilan majburiy etib qo‘yish taklif etiladi:

“agar bunga so‘roq qilinuvchi yoki uning qonuniy vakilarining qarshiligi bo‘lmagan hollarda, stenografiya, videokuzatuv, shuningdek audio va video qayd etish tizimlari bilan jihozlangan maxsus xonada qonuniy vakil, pedagog va (yoki) psixolog ishtirokida o‘tkazilishi lozim.”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шинкеич Н.Е. О праве потерпевшего на доступ к правосудию. //Администратор суда. 2009. № 1. С. 38–41.
2. Новикова М.В. Институт безопасности в уголовном судопроизводстве и пути его совершенствования // Российский судья. 2007. № 7.
3. Бородкина Т.Н. Проблемы и перспективы развития института государственной защиты потерпевших, свидетелей и иных участников уголовного судопроизводства // Мировой судья. 2010. № 4. С. 18–22.
4. Матвиенко И.В. Классификация субъектов государственной защиты и обеспечения безопасности участников уголовного судопроизводства и их полномочия // Актуальные проблемы государства и общества в области обеспечения прав и свобод человека и гражданина: материалы Всероссийской научно-практической конференции, посвященной 64-й годовщине со дня принятия Всеобщей декларации прав человека. Уфа: УЮИ МВД России, 2012. С. 84–87.
5. Звечаровский И.Э. Оптимизация уголовно-правовой охраны личности в аспекте общих начал современного уголовного законодательства России// Уголовно-правовая охрана личности и ее оптимизация: сборник научных статей. Саратов, 2003. С. 30–34.
6. Николаев Е. М. Потерпевший как объект государственной защиты в уголовном процессе// Актуальные проблемы государства и общества в области обеспечения прав и свобод человека и гражданина: материалы Всероссийской научно-практической конференции, посвященной 64-й годовщине со дня принятия Всеобщей декларации прав человека. Уфа: УЮИ МВД России, 2012. С. 74–78.
7. Kudratillaev K. Specific Features Of The Use Of Precautionary Measures//Современные Научные Исследования: Актуальные Вопросы, Достижения И Инновации. – 2022. – С. 215-218.
8. Махмудов С. Айблилик тўғрисидаги масалани ҳал қилмай туриб жиноят ишини тугатишнинг айрим жиҳатлари //юрис т ахборотномаси. – 2020. – Т. 1. – №. 6. – С. 110-115.
9. Махмудов С.А. Termination Of Criminal Proceedings In Criminal Procedure//Conferences. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
10. Алишаев С. Т. Судебное решение: законность, справедливость и беспристрастность//Herald pedagogiki. Nauka i Praktika. – 2022. – Т. 2. – №. 2.



11. Mamatalieva S.K. Some problems of the prosecutor's participation in civil courts// Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2022. – T. 2. – №. 1.
12. Mamatalieva S.K. Some problems in the application of the prosecutor's opinion on civil procedure//Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2021. – T. 1. – №. 2.